

ERKIN VOHIDOV SHE’RIYATIDA ZAMON RUHIYATI TALQINI

Xamrayeva Komila Baxodir qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika fakulteti 3-bosqich talabasi

E-mail: xamrayevakomila076@gmail.com

Annotatsiya: Erkin Vohidovning yozilganiga ko‘p vaqt o‘tgan bo‘lsa ham mavzusi va mazmuni haligacha ahamiyatini yo‘qotmagan she‘rlari talaygina. Maqolada shularga urg‘u qaratilgan.

Kalit so‘zlar: shoir, she‘riyat, zamon ruhiyati, insoniylik, ijtimoiy muammolar, xalq yuragi

Abstrakt: Many of Erkin Vahidov’s poems have not lost their importance even though a long time has passed since they were written. The article focuses on them.

Keywords: poet, poetry, spirit of time, humanity, social problems, heart of the nation

Har bir ijodkorning o‘z yo‘nalishi bor. Buni uning ijodidagi asosiy obyekt qaratilgan mavzular mohiyati orqali baholash mumkin. Shunga ko‘ra, biz Erkin Vohidovni insoniylik kuychisi deya olamiz. Shoirning "Sen menga tegma", "Bong uring", "Noahil juftlar", "Qumursqalar jangi" kabi qator she‘rlari ijtimoiy muammolarga qaratilgan va kishini chuqur mulohaza qilishga chorlaydi.

Har davrning o‘z ruhiyati, har zamonning o‘z muammolari bo‘ladi. Kechagi gap bugunga to‘g‘ri kelmaydi, deymiz. Biroq shunday illatlar borki, ular bilan asriy kurash kechmoqda. Bu loqaydlik. Yana bir nomi - "Men senga tegmay, sen menga tegma".

Insoniylik kuychisi Erkin Vohidovning shu mavzuga aloqador "Sen menga tegma" she‘ridagi shunday satrlar e‘tiborimizni tortadi:

"Der: odat shunday

Sira g‘am chekma.
 Men senga tegmay,
 Sen menga tegma...
 Bu qanday odat,
 Bu qanday savdo!
 Bu axir, ofat!
 Bu axir, balo!"

Lirik qahramonning tushida borliq aralash, olamning qorishiq ekanligi, tulkinging tovuqxonada ko‘ngli chog‘lik qilayotgani, sichqonlar bug‘doy hosilini yeb bitirayotganda mushukning jon rohatida uxlab semirishi, tozining qo‘y ziyofati bilan qashqirni mehmon qilayotgani kabi holatlarga cho‘ponning bee’tibor qaragani/munosabati tasvirlanadi.

Shoir aslida bu misoldagi ko‘chma obrazlar jamiyatda ham mavjudligiga, bu esa taraqqiyotning ildiziga bolta urishiga ishora qiladi.

Shoir xalqni loqaydlikdan ogohlikka chaqirar ekan, bu kabi illatlar sof vijdonli insonga sira halovat bermasligini ta’kidlaydi:

"Asab portladi,
 Bo‘ldi sabr ado.
 Meni chorladi
 Ichki bir sado:
 Agar halolsan,
 Tilingni tiyma!
 Bitsin, yo‘qolsin -
 Sen menga tegma!"

She’r 1977-yilda yozilgan bo‘lsa-da hanuz dolzarbligini yo‘qotgan emas. Boisi shundaki, insoniyat qachon tubanlikka yuz tutadi, qachon xavf-xatarga to‘ladi, ayrimlar yomonlik qilgani uchun emas, qolgan barcha buni jim kuzatib turgani uchun.

"Shoirlik - bu shirin jondin kechmakdir, Limmo-lim fidolik mayin ichmakdir".

Filologiya fanlari doktori, akademik Naim Karimov bilan bo‘lgan suhbatda Erkin Vohidov "Shoir bo‘lmasam, sharqshunos bo‘lishim mumkin edi, jurnalist bo‘lishim mumkin edi. Kim bo‘lsam ham adabiyot atrofida bo‘lardim", deb alohida ta’kidlaganlar. Jadidlardan qolgan "Shoir bo‘lish kamlik qiladi, To kishan bor ekan yurt oyog‘ida", shioriga amal qilib, jonkuyarlik bilan yashagan ijodkordir. Bu so‘zlarimizni shoirning quyidagi satrlari isbotlaydi:

“Demang, shoir jimib ketdi,
G‘azal yozmay tinib ketdi.
Tinib ketsa, bilingizki,
Yog‘och otga minib ketdi.”

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidovning har bir she’ri sermazmun hikmat, juda katta maktabdir. Uni har bir inson o‘qishi, albatta, lozimdir. Erkin Vohidov she’rlarini targ‘ib qilish savob ulashish, ilm o‘rgatish bilan barobardir. Zero, xalq yuragi millat tomiridagi qonlarni haydab tursa, ul jamiyat sog‘lom bo‘lur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. kh-davron.uz
2. "Inson", E. Vohidov, "O‘qituvchi" NMIU, Toshkent - 2018